

Yer xazinalarining ustida



11:40 / 26.05.2019 2272

16

Yusuf bilardiki, odamlarda omonatdorlik oz edi.

Yusuf bilardiki, odamlarda xiyonat ko'p edi.

Yusuf ko'rardiki, odamlar Allohning mollariga xiyonat qilardilar.

Yusuf ko'rardiki, albatta yerda xazinalar ko'p, lekin ular zoe qilingan edi. Albatta ular zoe qilingan, chunki amirlar Allohdan qo'rqmas edilar. Ularning itlari ovqat yer edi, ammo odamlar yeyishga narsa topa olmas edi.

Ularning uylari bezatilar edi, lekin odamlar kiyishga kiyim topa olmas edi.

Yerning xazinalari odamlarga foyda bermas edi, faqat ularni bilib, saqlab (g'amlab), muhofaza qiluvchilar bilan foyda olar edi.

Kim muhofaza qila olsa-yu yer xazinalari qayerdaligini bilmasa, ulardan qanday foydalansin?

Kimdir (xazinani) bilsa-yu, uni muhofaza qila olmasa, uni yeb, xiyonat qilar edi.

Yusuf bilib, muhofaza qiluvchilardan edi.

Yusuf odamlarning molini yeydigan podshohlarning (ishlariga) ko'z yumib ketishni xohlamas edi.

Yusuf odamlarning ochlikdan o'lishlarini ko'rishga toqat qila olmas edi.

Yusuf haqdan uyalmas edi. U podshohga: **«Meni yerning xazinalari ustiga qo'y. Albatta, men muhofaza qiluvchi va biluvchiman»**, dedi.

Shunday qilib Yusuf Misr xazinalarining (ishonchli) odami bo'ldi. Odamlar bundan juda rohatlanib, Allohga hamd aytdilar.